



UDK: 316.42:330.341.1:004

Baxodirjon GANIYEV,

DSc, professor, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: mr.ganiyev76_fsu@inbox.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, falsafa fanlari doktori N.Xakimov taqrizi asosida

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IJTIMOY TRANSFORMATSIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy qadriyatlar va biznes madaniyatiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, elektron tijorat, raqamli platformalar, innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellektning tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalarida raqamli iqtisodiyot tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini ham kuchaytirayotganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, ijtimoiy transformatsiya, innovatsiya, platforma iqtisodiyoti, raqamlashtirish, ijtimoiy kapital, sun'iy intellekt, biznes madaniyati.

СОЦИАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется социальная трансформация предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики. В исследовании рассматривается влияние процессов цифровизации на деятельность субъектов предпринимательства, социальные отношения, систему экономических ценностей и культуру ведения бизнеса. Кроме того, раскрывается роль электронной коммерции, цифровых платформ, инновационных технологий и искусственного интеллекта в предпринимательской деятельности. Результаты исследования показывают, что цифровая экономика усиливает значение предпринимательства не только как экономического явления, но и как важного социального института.

Ключевые слова: цифровая экономика, предпринимательство, социальная трансформация, инновации, платформенная экономика, цифровизация, социальный капитал, искусственный интеллект, культура бизнеса.

SOCIAL TRANSFORMATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotation

This article examines the social transformation of entrepreneurial activity in the context of the digital economy from a socio-philosophical perspective. The study explores the impact of digitalization processes on entrepreneurial activities, social relations, economic values, and business culture. It also highlights the role of e-commerce, digital platforms, innovative technologies, and artificial intelligence in entrepreneurial activity. The findings demonstrate that the digital economy is strengthening the significance of entrepreneurship not only as an economic phenomenon but also as an important social institution.

Keywords: digital economy, entrepreneurship, social transformation, innovation, platform economy, digitalization, social capital, artificial intelligence, business culture.

Kirish. XXI asr boshlaridan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida chuqur transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatining mazmunini yangilashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash vositasi, balki jamiyat taraqqiyotini jadallashtiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulot hajmini sezilarli oshirish, korrupsiyani kamaytirish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va aholining turmush darajasini yuksaltirishning muhim omilidir" [1].

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy transformatsiyasini o'rganish

zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi – raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy mohiyatidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining mazmuni, shakllari va ijtimoiy funksiyalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va elektron tijorat platformalarining rivojlanishi tadbirkorlik subyektlarining bozor bilan o'zaro aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foyda olish vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotning nazariy bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, farmonlari va strategik

hujjatlari, shuningdek, o'zbek va rus olimlarining ilmiy ishlari tashkil etdi.

M.Kastelsning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyatda iqtisodiy faoliyatning markaziga tarmoq munosabatlari va bilim kapitali chiqadi [4]. Mazkur holat tadbirkorlik faoliyatining ham yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar, startap loyihalar va platforma biznesi iqtisodiy faollikning yangi ko'rinishlariga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham elektron savdo hajmi, onlayn xizmatlar va raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining transformatsiyasini jadallashirmoqda. Natijada biznes yuritish xarajatlari kamayib, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy kapitalning ahamiyati. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri ijtimoiy kapital hisoblanadi. Ishonch, hamkorlik, kommunikativ tarmoqlar va innovatsion aloqalar biznes rivojlanishining asosiy shartiga aylanmoqda.

F.Fukuyama iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi jamiyatdagi o'zaro ishonch darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Raqamli platformalar tadbirkorlarga yangi hamkorlar topish, xalqaro bozorga chiqish va investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mazkur jarayon natijasida iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy komponenti kuchayib, tadbirkorlikning jamiyat rivojlanishidagi o'rni ortib bormoqda.

Innovatsion tadbirkorlik va yangi ijtimoiy munosabatlar. Raqamli iqtisodiyot innovatsion tadbirkorlik rivojlanishining asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsion biznes nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki yangi ijtimoiy muammolarni hal etishga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Q.X.Abdurahmonovning fikricha, innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali va intellektual salohiyat iqtisodiy taraqqiyotning asosiy resursiga aylanadi [3].

Shu sababli zamonaviy tadbirkorlik faoliyatida bilim, kreativlik va innovatsion tafakkur ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tadbirkorlikning ijtimoiy mohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, dialektik tahlil, qiyosiy tahlil, aksiologik va institutsional metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining transformatsiyasini o'rganishda ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar, jumladan, M.Kastelsning tarmoq jamiyati nazariyasi, A.Giddensning reflektiv modernizatsiya konsepsiyasi hamda mahalliy olimlarning iqtisodiy modernizatsiyaga oid qarashlari metodologik asos sifatida qo'llanildi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy transformatsiyasi, avvalo, mehnat bozoridagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Masofaviy ish, frilans faoliyat, platforma iqtisodiyoti va gig-bandlik shakllarining rivojlanishi an'anaviy ish munosabatlari o'zgartirmoqda. Bugungi kunda ko'plab fuqarolar raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish, mahsulot sotish yoki masofadan turib professional faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu holat bandlikning moslashuvchanligini oshirish bilan birga, yangi ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqishni ham talab qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning ijtimoiy transformatsiyasi iste'molchilar bilan munosabatlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Zamonaviy tadbirkorlik subyektlari mijozlar ehtiyojlarini sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida o'rganib, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etmoqdalar. Natijada iste'molchi passiv xaridor emas, balki mahsulot va xizmatlarni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu esa iqtisodiy munosabatlarning

demokratlashuviga va biznesning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy transformatsiyaning yana bir muhim jihati tadbirkorlikning inklyuziv xarakter kasb etishidir. Raqamli texnologiyalar geografik va ijtimoiy cheklavlarni kamaytirib, ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda chekka hududlarda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilinishiga imkon yaratmoqda. Elektron tijorat, raqamli to'lov tizimlari va onlayn ta'lim platformalari orqali kichik biznes subyektlari global bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ijtimoiy tenglik va iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi muayyan muammolarni hal etish bilan birga iqtisodiy samaradorlikka erishishni maqsad qiladi. Raqamli platformalar orqali ekologik muammolar, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash va kambag'allikni qisqartirish kabi masalalarga qaratilgan loyihalarning soni ortib bormoqda. Bu esa tadbirkorlikning faqat daromad olishga emas, balki ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

Biroq raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan ayrim muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, raqamli tengsizlik, kibernetika tahdidlari, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va texnologik ishsizlik masalalari tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining turlicha bo'lishi ayrim aholi qatlamlarining iqtisodiy jarayonlardan chetda qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois davlat va biznes hamkorligida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy funksiyalaridagi transformatsiya. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining vazifalari kengayib bormoqda. Endilikda tadbirkorlik faqat iqtisodiy foyda olish emas, balki ijtimoiy muammolarni hal etish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda.

A.Giddens zamonaviy jamiyatning reflektiv xususiyatga ega ekanligini ta'kidlab, iqtisodiy subyektlar doimiy ravishda o'z faoliyatini yangilab borishga majbur bo'lishini qayd etadi [5]. Raqamli tadbirkorlik aynan mana shu reflektivlikning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar biznes subyektlariga bozor talablarini tezkor aniqlash, iste'molchilar bilan bevosita aloqalar o'rnatish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini bermoqda.

Sun'iy intellekt va tadbirkorlik faoliyatining kelajagi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda yangi ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantirmoqda. Marketing, logistika, moliyaviy tahlil va boshqaruv tizimlarida sun'iy intellektdan foydalanish biznes jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Biroq mazkur jarayon ayrim ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, raqamli tafovut, mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar va axborot xavfsizligi bilan bog'liq masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

N.Postman texnologik taraqqiyotning insoniy qadriyatlariga ta'sirini baholash zarurligini ta'kidlaydi [7]. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyati inson manfaatlarini va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'un rivojlanishi lozim.

Yangi O'zbekistonda raqamli tadbirkorlik istiqbollari. Yangi O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030"

strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar tadbirkorlik faoliyatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning fikricha, “iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi” [2].

Bugungi kunda elektron tijorat, elektron hukumat, fintex tizimlari va innovatsion startaplar rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa jamiyatda yangi iqtisodiy madaniyat va innovatsion tafakkurning shakllanishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy mohiyati sezilarli transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli

texnologiyalar iqtisodiy faoliyatning an’anaviy shakllarini yangilab, tadbirkorlikni innovatsiyalar, bilim va ijtimoiy kapitalga asoslangan tizimga aylantirmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining transformatsiyasi natijasida uning ijtimoiy funksiyalari kengayib, aholi bandligini ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdagi roli ortib bormoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga, raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, inson qadri va barqaror taraqqiyot tamoyillariga ham asoslanishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 464 B.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
3. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. 512 B.
4. Kastels M. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshchestvo i kultura. Tom I: Stanovlenie setevogo obshchestva. Moskva: Izd. dom VShE, 2016. 608 S.
5. Giddens E. Posledstviya sovremennosti. Moskva: Delo, 2021. 352 S.
6. Fukuyama F. Doverie: sotsialnye dobrodeteli i put k protsvetaniyu. Moskva: AST, 2021. 736 S.
7. Postman N. Tekhnopoliya: kapitulyatsiya kultury pered tekhnologiyey. Moskva: AST, 2022. 416 S.